

MIRZO QO‘QANDBOY ABDUXOLIQZODA SAMARQANDIYNING  
ADABIY MEROsi HAQIDA BIZ BILMAYDIGAN QIRRALAR

*Amonov Hasan Halim o‘g‘li*  
*O‘zbekiston-Finlandiya Pedagogika instituti,*  
*Pedagogika fakultetining 2-bosqich talabasi*  
[hasanamonov916@gmail.com](mailto:hasanamonov916@gmail.com)

**Annotatsiya:** mazkur maqolada XIX asr oxiri va XX asr boshlarida yashab ijod etgan Mirzo Qo‘qandboy Abduxoliqzoda Samarqandiyning hayoti va adabiy merosi haqida so‘z yuritilgan. Yozuvchining “Xotiralar” asari qisqacha tahlil etilib, uning bugungi kun mamlakatimiz hayotidagi badiiy, ilmiy va tarixiy ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, adibning yaqin yillarda nashr etilgan ba’zi asarlari haqida ma’lumot berilgan.

**Tayanch so‘z va iboralar:** ta’lim, adabiyot, nasr, Samarqand, xotira janri, adabiy meros, tarixiy voqealar, “Xotiralar” asari.

Mirzo Qo‘qandboy Abduxoliqzoda Samarqandiy Markaziy Osiyoning XIX asr oxiri va XX asrning birinchi yarmi ilmu ma’rifatida yorqin iz qoldirgan ijodkorlardan desak xato qilmagan bo‘lamiz. U Abdulla Qodiriy, Mahmudxo‘ja Behbudi, Sadreddin Ayniy bilan bir vaqtida kamol topdi, ular qatorida ma’rifatparvarlik jarayoniga qo‘silib, uning g‘oyalarini targ‘ib qildi. Yangi maktablar ochilishi, ta’lim sohasida islohotlar qilinishida o‘zining hissasini qo‘shti. Keyinchalik badiiy adabiyot maydoniga kirib, asarlari bilan turli yangi janrlar takomiliga hissa qo‘shti. Jumladan, uning «Xotiralar» asarini XX asr adabiyotida esdalik janrining takomullashuvida, mazkur janrning yangicha yozish uslublarini paydo bo‘lishiga muhim omil qilib ko‘rsatish mumkin.

Mirzo Qo‘qandboy Abduxoliqzoda Samarqandiy 1869 yili Qo‘qonning Maxmalbof mahallasida tug‘ilgan. Yozuvchi «Xotiralar» deb nomlangan asarida ota-onasi 1868 yilda Samarqanddan Qo‘qonga ko‘chib borganini va bir yildan keyin - 1869 yilda shu shaharda dunyoga kelganligini eslab o‘tadi. [2,72]. Asl ismi Abdulhaq bo‘lgan, Qo‘qonda tug‘ilganligi sababli uni «Qo‘qandboy» deb ataganlar va keyinchalik u bu nom bilan mashhur bo‘ladi. Otasi Abduxoliq Samarqandning hunarmandlaridan bo‘lgan. Mirzo Qo‘qandboy 5-6 yoshligida oilasi Qo‘qondan Samarqandga ko‘chib keladi va Qo‘shhovuz mahallasida yashaydi. Mirzo Qo‘qandboy avval maktab, keyin esa madrasada ta’lim oladi. U fors, arab, o‘zbek, rus, ozarboyjon, turk-usmon tillarini mukammal bilgan. Ko‘p tillarda so‘zlay olishi sababli 1893 yildan boshlab davlat va ma’muriy idoralarda tarjimon va mufattish (davlat xodimi) bo‘lib ishlaydi, jadidizm jarayoniga qo‘silibadi va ma’rifatparvarlik g‘oyalarini targ‘ib qiladi. Yangi usul maktablarining ochilishiga katta hissa qo‘sadi va darsliklarni rus tilidan tojik va o‘zbek tillariga tarjima qiladi.

1931 yilda Mirzo Qo‘qandoyni qamoqqa oladilar. Ikki oydan keyin gunohsizligi isbotlanadi va u ozod bo‘ladi. Shundan keyin umrining oxirigacha ijod bilan band bo‘ladi. Yozuvchi sobiq sho‘rolar siyosati bilan hamnafas bo‘la olmadi va tarixiy haqiqatlarni aslicha tasvirladi. Shu yo‘l bilan bosqinchilarning asl basharalarini va

yovuz niyatlarini katta jasorat bilan ko'rsatdi. Mana shu sababga ko'ra Mirzo Qo'qandboyning asarlari hayotligida chop etilmadi. Yozuvchi shuhrat uchun, boylik uchun o'zi tanlagan yo'ldan qaytmadi. U 79 yil umr ko'rdi va 60 yillik ijod mahsuli qo'lyozma shaklida meros qoldi. Mirzo Qo'qandboy 1948 yili umidsizlikda, orzulari ushalmay hayot bilan vidolashdi.

Mirzo Qo'qandboy Abduxoliquzoda Samarcandiyan «Namoz» («Namoz»), «Duxtari ko'histon» («Tog' qizi») nomli romanlar, esdalik asari «Xotiro» («Xotiralar»), «Istadjon» («Istadjon»), «Az no'gi qamchin xun mechakad» («Qamchin uchidan qon tomadi») nomli qissalari, «Hikoyaho» («Hikoyalar») majmui, «Sho'rishi Dizzax» («Jizzax qo'zg'oloni») nomli tarixiy ocherki qo'lyozma sifatida meros qolgan. Yozuvchi hayotligida faqat «Namoz» nomli romanidan bir parcha chop etilgan, xolos.

Mustaqilligimiz sharofati bilan Mirzo Qo'qandboyning hayoti va ijodini o'rganish yo'li keng ochildi. Bu ishda yozuvchining nevarasi Tal'at Abduxoliquzoda bosh-qosh bo'ldi. Uning say'-harakatlari bilan yozuvchining «Tog' qizi» romani o'zbek va tojik tillarida chop etildi. Adib tug'ilganligining 140 yilligi munosabati bilan 2009 yili tarixiy ocherki - «Jizzax qo'zg'oloni» hamda «Istadjon», «Qamchin uchidan qon tomadi» nomli qissalari bir majmuada chop etildi. Bu asarlarning chop etilishida tilshunos olim Vafo Nazarovning xizmati salmoqli. U qo'lyozmalarini arab yozuvidan kirill yozuviga o'girdi.

Adib ijodida alohida o'rin tutadigan esdaliklar asari - «Xotiralar» bugungacha chop etilmagan. Asarning nashrga tayyorlanayotgan nusxasi bilan tanishar ekanmiz, uni yaratishda muallif qadimiy esdaliklar yozish an'analarini davom ettirib, o'zi qatnashgan, eshitgan va ko'zdan kechirgan voqeа-hodisalarini badiiy bayon etgan. Asar yagona syujetga ega emas, alohida-alohida rivoyat, hikoyatlardan iborat bo'lib, bu voqeа - hodisalarini real keltirishda qo'l kelgan.

«Xotiralar»-da bolalik chog'idan hayotining oxirigacha boshidan kechirgan hikoyalar o'z aksini topgan. Asarning qimmati shundaki, har bir hodisa-voqeа haqidagi hikoyatlarning ostida uning yozilgan sanasi ko'rsatilgan. Bu sanalar 1891 yildan 1944 yilgacha bo'lgan vaqtini o'z ichiga oladi. Ma'lum bo'ladiki, adib bu asarini hayotining 53 yili davomida yozgan.

Asarda adib hayotda ko'rgan, guvohi bo'lgan Samarcand, qolaversa Markaziy Osiyoning siyosiy-ijtimoiy, adabiy-madaniy hayoti bilan bog'liq voqeа hodisalar real tarzda ko'rsatilgan. Yozuvchi «Xotiralar» asarida Rossiya podshohligining Markaziy Osiyo xalqlari boshiga solgan kulfatlarini mohirlik bilan tasvirlagan. Jumladan, Mirzo Qo'qandboy «Muomilai hokimoni rus ba aholii mahalli» («Rus hokimlarining mahalliy aholiga muomilalari»), «Yak voqeа dar Namangon» («Namangandagi bir voqeа»), «Hamin guna voqeа dar Samarcand» («Shunga o'xshash voqeа Samarcandda»), «Duro'yagii hokimoni Russiyai podshohhi» («Rus podshohligi hokimlarining ikkiyuzlamachiligi»), «Voqeahoi Samarqandro istilo kardani ruson» («Ruslarning Samarqandni istilo qilish voqealari»), «Sudhoi davrai podshohhi» («Podshohlik davridagi sudlar») kabi xotiralarida ruslarning ayb-illatlari, zo'ravonliklari va qatlu g'oratlarini qattiq tanqid ostiga olgan. Misol tariqasida «Rus hokimlarining mahalliy aholiga muomalalari» voqeiy xotiroidan bir parcha keltiramiz: «Aholii mahalli ba nazari hukumati Russiyai podshohhi ba misli xalqi begona bud.

Vayro zolimona nobud mekard va bo in zaminro toza mekard, to ki muhοjironi rusro ovarda shinonad...» [2,12]. (Mazmuni: Rossiya podshohligi hukumatining nazarida mahalliy aholi begona xalqqa o‘xshardi. Ularni zolimlarcha nobud qilardi va bu bilan yerni tozalardi, to ki rus muhοjirlarini olib kelsin).

Bundan tashqari «Xotiralar» asarida Samarqand shahri va uning aholisi to‘g‘risida muhim ilmiy ahamiyatga ega ma’lumotlar ham keltirilgan. Samarqandning yetti darvozasi, Registoni, bir yuzu o‘nta guzari haqida tarixiy, geografik, madaniyatiga doir muhim ma’lumotlar, faktlar keltiriladi. Masalan, «Samarqand shahri ruslarning kelishi va shaharni istilo qilishidan oldin ikki qismdan iborat bo‘lgan: biri Shahri Darun (Ichkari Shahr), boshqasi Shahri Berun (Tashqari Shahr). Shahri Darun (Ichkari Shahr) 18 guzar va masjiddan iborat bo‘lib, hududi shudir... Shahri Berun (Tashqari Shahr) 110 guzar va 7 darvozadan iborat bo‘lgan: Ark, Poyqaboq, Shohi Zinda, Qalandarxonha, So‘zangaron, Xo‘ja Ahror, Buxoro» [2,79].

“Xotiralar” asarida mamlakatimizning 50 yildan ortiq siyosiy, ijtimoiy, madaniy, adabiy hayoti jonli va badiiy tarzda o‘z aksini topgan. Bundan ma’lum bo‘ladiki, mazkur asar vatanimiz tarixini o‘rganishimiz uchun muhim va nodir manba sanaladi. «Xotiralar» bugungi avlodni o‘tmishga nazar solib, kelajakka to‘g‘ri yo‘l tanlay bilish ruhida tarbiyalaydi. Biz bugun o‘tmishda orzulari ushalmagan bu kabi adiblarimizning nomini ulug‘lashimiz, ular ilgari surgan g‘oyalarni o‘z hayotimizda tadbiq etib, kelajagimiz poydevorini mustahkam qurishimiz kerak.

#### **Adabiyot:**

1. Botirxon Xil’atpuri Valixoja. Mirzo Qo‘qandboy kist? Ro‘znomai «Ovozi Samarqand» 13 va 18- avgusti soli 2004, № 61-63.
2. Mirzo Qo‘qandboy Abduxoliquzoda Samarcandiy. «Xotiralar», qo‘lyozma shaklida:(yozuvchi qo‘lyozmalarini xazinasidan).
3. Mirzo Qo‘qandboy Abduxoliquzoda Samarcandiy. Tog‘ qizi. «Zarafshon» nashriyoti, Samarcand-2006.
4. Mirzo Qo‘qandboy Abduxoliquzodai Samarcandi. Majmo‘ai asarho. Sho‘rishi Dizzax., Istajon., Az no‘gi qamchin xun mechakad. Nashriyoti «Sangzor», 2009.
5. Muhammadjon Shakuri Buxoroi. Nigohe ba adabiyoti tojikii sadai bist. – Dushanbe, 2006.
6. Xudoyberdi Asozoda. Adabiyoti tojik dar sadai XX. (jildi seyum). –Dushanbe: Maorif, 1999.